

“Jizzax – Quyosh”

Mamlakat O‘zbekiston

Loyiha raqami: 53063

Faoliyat sohasi: Energetika

Bildirishnoma turi: Xususiy

Ekologik toifasi: B

Tasdiqlanish sanasi: 2023-yil, 23-fevral

Qaysi bosqichdligi: **Konsepsiya muhokamadan o‘tgan**

Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana: 2023-yil, 19-yanvar

Loyiha mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati hududida nominal quvvati 220 MVt bo‘lgan fotoelektr quyosh elektr stansiyasini loyihalash, qurish va undan foydalanish (keyingi o‘rinlarda “Loyiha” deb yuritiladi) uchun 33 million AQSH dollarigacha bo‘lgan uzoq muddatli birinchi navbatdagi kredit ajratish. Bu Loyiha O‘zbekistonda yangi tashkil etilgan maxsus maqsadli tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi va u Loyihani moliyalashtirish uchun qarz oluvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. “Abu Dhabi Future Energy Company” XOAJ (“Masdar”) kompaniyasi mazkur Loyihaning homiysi hisoblanadi.

Loyiha maqsadi

Mazkur Loyiha mamlakatning milliy energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha loyihalarning hissasini oshirish borasidagi O‘zbekiston hukumatining strategik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u milliy energetika tizimiga qo‘shimcha 220 MVt quyosh elektr stansiyasi yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi qo‘shish hisobiga iqlim o‘zgarishlariga nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirish hamda mamlakatning past uglerodli texnologiyalarga o‘tishiga yordam beradi.

O‘tish davri ta’siri

Kutilayotgan o‘tish davri ta’sirining bahosi: 80

O‘tish davri ta’siri YTTBning Yashil iqtisodiyotga o‘tish (“GET”) yondashuviga Loyihaning potensial hissasi bilan bog‘liqdir, chunki u yordamida quyosh energiyasidan foydalangan holda elektr tokini ishlab chiqarishni ko‘zda tutganligi sababli, mamlakatning hozirgi kundagi issiqlik elektr stansiyasiga jiddiy tayanib qolish darajasini muayyan darajada pasaytiradi.

Loyihaning o'tish davri ta'siri, shuningdek, xususiy ishtirokchi kompaniya tomonidan yangi energiya quvvatlarni qo'shish orqali O'zbekistonning hozirgi davlat boshqaruvidagi energetika sektoriga sezilarli hissassi bilan bog'liq bo'lishi kutilmoqda.

Mijoz haqida

“NUR JIZZAKH SOLAR PV” CHEK MCHJ

Qarz oluvchi – to'liq “Masdar” kompaniyasi tasarrufida bo'lgan O'zbekistondagi maxsus loyiha kompaniyasi hisoblanadi.

Homiy: “Abu Dhabi Future Energy Company” XOAJ yoki qisqacha “Masdar” kompaniyasi dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda shaharlarning barqaror rivojlanishi sohasida faoliyat ko'rsatuvchi yetakchi kompaniyadir. U Abu-Dabi va dunyo bo'ylab yangi energetika tarmog'iga investitsiya qilish, rivojlantirish va yaratish bo'yicha hukumatning strategik tashabbusi sifatida 2006-yili tashkil qilingan.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

33 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

207 000 000,00 AQSH dollari

Qo'shimchalilik sharti

Moliyaviy tuzilma: YTTB ayni paytda tijorat manbalari bozorida muqobili bo'lmagan moliyalashtirishni uzoqroq imtiyozli davr va QQSni moliyalashtirishga ko'maklashish uchun qulay yangilanuvchi kredit liniyadan foydalanish imkoniyati kabu oqilona shartlar asosida taklif qiladi. Bunday moliyalashtirish loyiha tuzilmasi uchun zarurdir.

Risklarni kamaytirish: YTTBning mijoz bilan ko'p yillik hamkorlik qilishi mijozning o'z zimmasiga katta risk va/yoki innovatsiya yoxud yangi bozorlarga chiqish kabi natijalarni ta'minlagan holda moliyalashtirishga imkon beradi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Bu Loyiha YTTBning 2019 yildagi Ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq (“ESP-2019”) “B” toifasiga kiritilgan. Atrof-muhitga ta'sirni baholash hujjati (“ESIA”) homiy kompaniyaning maslahatchilari tomonidan tayyorlandi, Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (“ESDD”) esa, Kreditorning ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha mustaqil maslahatchisi (“LESC”) tomonidan amalga oshirilgan ekologik va ijtimoiy hujjatlarni tekshiruvlarni o'z ichiga oldi.

Hisobotning qisqacha mazmuni (“NTS”), Manfaaddor tomonlarning o'zaro hamkorligi rejasi (“SEP”) va Daromad manbalarini tiklash rejasi (“LRP”) kabi hujjatlarni o'z ichiga olgan ESIA hamda qo'shimcha hujjatlar loyihasi homiy tomonidan 2022-yil dekabr oyida Loyihaning veb-sahifasida (<https://masdar.ae/Masdar-Clean-Energy/Projects/Jizzakh-Solar-Project>)

e'lon qilingan hamda u mahalliy manfaatdor tomonlarga elektron va ijtimoiy tarmoqlar orqali yetkazilgan. Bu hujjatlarning qog'oz ko'rinishidagi nusxasi esa, SEP'da ko'rsatilgan maslahat tadbirlari doirasida maslahatlashuvlar davrida manfaatdor tomonlarga taqdim qilinadi. YTTB, kengroq kreditorlar guruhi va LESC tomonidan olib borilgan ESDD natijalari quyida umumlashtiriladi va bu Loyiha YTTBning loyiha talablariga muvofiq ishlab chiqilganligini xulosa qiladi.

Ma'lum bo'lishicha, obyektning tanlash jarayoni O'zbekiston hukumati tomonidan homiy loyihani kim oshdi savdosiga tayyorlash doirasida xalqaro maslahatchilar ko'magida loyihani taqdim qilishdan oldin amalga oshirilgan. Quyosh loyihalarini tanlash uchun qo'llaniladigan odatiy mezonlar bo'yicha Loyiha obyektini tahlili shuni ko'rsatadiki, bu obyektning tanlash jarayonida ekologik, ijtimoiy va boshqa omillar mo'tadillashtirilgan hamda bu obyekt biologik xilma-xillikning belgilangan hududlaridan uzoqligi va jiddiy iqtisodiy ko'chirishlarning oldi olinganligi tufayli asosiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlar deyarli kuzatilmagan. Prognoz qilinayotgan salbiy ta'sirlar esa yumshatiladi, obyektning joylashuvi ekologik-ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan sezilarli darajada maqbul emas deb hisoblanmaydi.

Hozirgi vaqtda ta'sirlarning aksariyati obyektning alohida hududlariga xos bo'lib, ularni ESIA'da keltirib o'tilgan chora-tadbirlar hamda ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini ("ESAP") amalga oshirish orqali yumshatilishi kutilmoqda. Bu reja esa, umumiy jihatdan homiy bilan kelishilgan va Direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlanishidan oldin to'liq yakunlanadi.. Qarz oluvchi bu Loyihani tegishli loyiha talablariga muvofiq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan homiyning to'liq tasarrufidir.

Fotoelektr quyosh elektr stansiyasi (QES) obyektini uchun zarur bo'lgan yer maydoni 562 gektarni tashkil qiladi va G'allaorol tumanidagi avvaldan ishlov berib kelingan yerlarining o'zgartirilgan yashash muhiti mavjud yerda joylashgan. Loyiha obyektini muhofaza qilinadigan hududda joylashmagan. 14,7 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli yangi havo elektr uzatish tarmoqlari (HEUT), intensiv ishlov beriladigan va sug'oriladigan yerlarini kesib o'tib, mavjud Saribozor nimstansiyasiga ulanadi. Loyiha uchun amalga oshirilgan muhim yashash muhitlari va bioxilmaxillikning ustuvor elementlarini (BUE) baholash hujjatida ta'kidlanishicha, ko'zda tutilgan bu QES obyektida kam populyatsiyadagi O'rta Osiyo toshbaqalari va BUE deb tasniflangan yana bir nechta sudralib yuruvchilar turlari saqlanib qolgan. Bu jonivorlarning umumiy yo'qotishlarning oldini olish ("NNL") chora-tadbirlari esa, qurilishdan oldin QES obyektini hududidan ko'chirish, moslashtirilgan to'siqlar va tegishli hududda qulay yashash muhiti yaratish yo'li bilan yo'qotilgan yashash muhitini kompensatsiyalash kabi harakatlarni o'z ichiga olgan yumshatish choralari majmui hisobiga amalga oshiriladi.

Mazkur Loyiha obyektini ko'chib yuruvchi qush turlari to'planish ehtimoli bo'lgan asosiy tor hududlar yoki geografik makonlarda joylashmagan, shuningdek u ko'chib yuruvchi yoki qishlovchi qushlarni jalb qiladigan xususiyatlarga ega emas. Obyekt va HEUT sovuq qish mavsumida tuvaloq (Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ittifoq ("IUCN") ro'yxatida yo'qolish xavfi bo'lgan; O'zbekistondagi "Qizil kitob"ga yo'qolib ketish arafasidagi tur sifatida kiritilgan) uchun muhim qishlash joylari bo'lgan ikkita hududdan 12 km gacha uzoqlikda joylashgan. QES obyektida va HEUT yo'nalishi bo'yidagi hududlardagi hayvonot dunyosi vakillari uchun ahamiyatli yashash joylari hisoblanmasa-da (chunki, bu yerdagi qushlar HEUT ustidan bemalol uchib o'tishlari mumkin), ehtiyotkorlik nuqtai nazaridan, HEUT

egallagan havo hududi ahamiyatli hudud deb tasniflandi. Ammo HEUT bu populyatsiyalarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli juda past.

Uchib yuruvchi mavjud oz sonli qushlarning bir nechta boshqa turlari BUE deb baholandi va QESni ekspluatatsiya bosqichida bu qushlarning HEUT bilan to'qnashuv xavfi bu tarmoqlar boshlangan joyidan oxirigacha bo'lgan yerlarda qushlarni qo'rqitish moslamalarini o'rnatish orqali kamaytiriladi. Qurilish tugagandan so'ng ushbu turdagi qushlarning nobud bo'lishini kuzatish dasturi amalga oshiriladi. Qushlarni qo'rqitish moslamalari tuvaloq uchun to'liq samarali emasligi sababli, har qanday to'qnashuv oqibatlarni kompensatsiya qilish va bu qushlarning tabiiy o'sishini ("NG") ta'minlash uchun (hozirda ushbu tur uchun eng katta tahdid sifatida belgilangan) brakonerlikni kamaytirishga qaratilgan kompensatsiya choralari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Homiy muhim yashash muhitlari va bioxilmaxillikning ustuvor elementlari uchun>NNL/NG'larni ko'rsatib berishi, jumladan qushlarni muhofaza qilish sohasida tan olingan manfaatdor tomonlar bilan bu choralar bo'yicha kelgusida maslahatlar o'tkazish uchun ESIA'da taklif qilingan yumshatish va kompensatsiya choralarining tegishli strategiyasini ishlab chiqish va monitoring qilish uchun biologik xilmaxillikni saqlab qolish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishi va e'lon qilishi kerak bo'ladi.

Bu hududda aholini ko'chirish talab qilinmaydi. Mahalliy fermerlar bilan maslahatlashuv asosida, HEUT yo'nalishi qimmatli ekinlar yetishtiriladigan yerlarni chetlab o'tadigan qilib tanlandi. QES obyekti da aholi daromadiga hech qanday jiddiy ta'sirlar kutilayotgani yo'q. Faqat bitta ommaviy poda Loyiha hududini kesib o'tgan holda boshqa yaylovga o'tadi va endi shu podaning cho'poni boshqa uzoqroq muqobil yo'llarni tanlashi kerak bo'ladi. Shuningdek, HEUT bo'ylab 7 nafar ijarachiga vaqtinchalik va doimiy ko'rsatiladigan zararlar uchun kompensatsiya beriladi. QES obyekti va HEUT uchun daromad manbalarini tiklash rejasini ("LRP") loyihasi ishlab chiqilib, e'lon qilindi. Loyihadan zarar ko'rgan aholi bilan maslahatlashgandan so'ng ushbu hujjat yakuniga yetkaziladi.

Loyihaning qolgan ta'sirlari odatiy qurilish bosqichi bilan cheklanadi hamda ular atrof-muhit, ijtimoiy boshqaruv bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar yordamida yumshatiladi. ESIA Loyihaning Atrof-muhit, ijtimoiy boshqaruv va monitoring rejasini ("ESMMP") mexanizmini o'z ichiga oladi, bu reja esa, o'z navbatida, tegishli yumshatish va monitoring choralari hamda Loyiha yakunlangunga qadar muddatdagi ijro mas'uliyatlarni o'zida aks ettiradi. Ushbu chora-tadbirlar ekologik va ijtimoiy boshqaruv uchun qurilish va foydalanish rejalarini orqali Loyihaning Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimiga ("ESMS") kiritiladi. Muhandislik jihozlari xaridi va qurilish, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha pudratchilar ham ESMMP talablariga muvofiq bir qator boshqaruv rejalarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Qurilish obyekti ga transportlarning kirishi va chiqishi xavfsizlik va shovqin ta'sirini minimallashtirish choralari, yo'l harakatini boshqarish rejasini amalga oshirish barobarida obyekti ga yakuniy kirish yo'llarini tanlash orqali tartibga solinadi. Ishchi kuchi yetarli salohiyat va infratuzilmaga ega bo'lgan yirik aholi manzilgohlariga joylashtiriladi yoki ishchi-xodimlar uchun maxsus yashash lageri tashkil etiladi. Barcha yashash joylarni boshqarish XMK/YTTB tavsiyalariga muvofiq ishchi kuchini joylashtirishni boshqarish rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Qisqa qurilish davrida taxminan 1000 nafargacha bo'lgan ishchi-xodimlar ishlashini hisobga olgan holda, imkon qadar mahalliy aholini ishga qabul qilish imkoniyatlarini

oshirish uchun mahalliy ishga qabul qilish rejasi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, odamlarning ehtimoliy yuqori oqimi va gender asosidagi zo'ravonlik va tazyiq ("GBVH") xavfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ham amalga oshiriladi. Shuningdek, homiy mahalliy jamoalar bilan maslahatlashgan holda, ijtimoiy rivojlantirish rejasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu reja esa, aholiga, xususan, har qanday qoldiq ta'sirlarni bartaraf qilish uchun, yerdan foydalanishga cheklovlar qo'llaniladigan aholi qatlamiga qator imtiyozlar taqdim qilishni ko'zda tutadi.

Quyosh energiyasi ta'minoti zanjiri xavfini boshqarish borasida QES ehtiyot qismlari uchun tegishli boshqaruv yondashuviga muvofiq ta'minot zanjirining majmuaviy ekspertizasi o'tkazildi. Homiy ta'minot zanjirini boshqarishdagi amaldagi tizimning dalillari bilan tanishtirdi, shu bilan birga u mehnat munosabatlaridagi qoidabuzarliklariga toqatsiz ekanligi to'g'risida bir qator tartib-qoidalar va bayonotlarini taqdim etdi. Ushbu Loyiha uchun polikremniygacha bo'lgan ta'minot zanjiri tegishli xaritada ko'rsatilgan va kelib chiqishi bo'yicha mustaqil maslahatchi tomonidan tekshiriladi. Moliyalashtirish to'g'risidagi bitim va ESAP homiy va qarz oluvchidan eng ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq quyosh modullarini topish uchun tegishli tekshiruv o'tkazish hamda boshqaruv tartib-qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Loyihaning ko'lami katta ekanligi tufayli bir qator potentsial quyosh modullarini yetkazib beruvchilar mavjud bo'lib, ularning har biri polikremniy darajasida ta'minot zanjiri xaritalarini taqdim etdi va ularning barchasi qattiq tekshiruvdan o'tdi.

Mazkur Loyiha ESAP va loyiha talablariga muvofiq bo'lishi uchun uchun mustaqil ekologik va ijtimoiy maslahatchilar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilinadi.

Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish

Ko'zda tutilmagan.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Karlos Ponte
cponte@masdar.ae
<http://www.masdar.ae>
BAA, Abu Dabi shahri, 54115-pochta qutisi

Loyihaning qisqacha mazmuni so'nggi marta yangilangan sana

2023-yil, 19-yanvar

Aloqador material

- [Environmental and Social Document: Jizzakh Solar LRP](#)
Turi: PDF, E'lon qilingan kun: 19.01.2023
- [Environmental and Social Document: Jizzakh Solar LRP \(Uzbek\)](#)
Turi: PDF, E'lon qilingan kun: 19.01.2023
- [Environmental and Social Document: Jizzakh Solar NTS](#)
Turi: PDF, E'lon qilingan kun: 19.01.2023

- [Environmental and Social Document: Jizzakh Solar NTS \(Uzbek\)](#)
Turi: PDF, E'lon qilingan kun: 19.01.2023
- [Environmental and Social Document: Jizzakh Solar SEP](#)
Turi: PDF, E'lon qilingan kun: 19.01.2023
- [Environmental and Social Document: Jizzakh Solar SEP \(Uzbek\)](#)
Turi: PDF, E'lon qilingan kun: 19.01.2023

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havolada](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan

ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.